



bugun tashqarida

Kuz nimalarni olib keladi?



Men uchun kuz rang-barang bo'yoqlar uyg'unligini anglatadi. Bu davrda daraxtlar va butalar sariq, jigarrang, to'q sariq va qizil ranglarga bo'yaladi.

Men uchun kuz yilning o'ziga xos davri hisoblanadi. Bu davrda kuzgi hosil yig'im-terimi boshlanadi. Ko'plab mevalar, sabzavotlar, rezavorlar va yong'oqlar kuzda pishib yetiladi.



Rassom kuzning qanday o'ziga xos xususiyatlarini tasvirlagan? Kuzning yana qanday xususiyatlarini bilasiz?





Kuzgi yaproqlarga qarang va ularning nomini eslab qoling.



kashtan



eman



chinor



terak



tol



tog'terak



Sayilgohda to'kilgan yaproqlardan kuzgi guldasta yig'ing. Kichkina chiroyli yaproqni tanlang. Uni qog'oz ustiga qo'yib, chetidan qalam yuritib chiqing. Hosil bo'lgan yaproq shaklini bo'yang.

